

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.12.2025.P.08.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RAHIMOVA NAZOKATXON KASIMDJONOVNA

**TALABALARNI O‘QITISH SIFATINI OSHIRISHDA IJTIMOIIY
YETUKLIKNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

19.00.06 - Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

**Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc)
по психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of science (DSc) on psychological
sciences**

Rahimova Nazokatxon Kasimdjonovna

Talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikning psixologik
determinantlari3

Рахимова Назокатхон Касимджоновна

Психологические детерминанты социальной зрелости в повышении качества
обучения студентов.....29

Rahimova Nazokatxon Kasimdjonovna

Psychological determinants of social maturity in improving the quality of teaching
students.....57

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....62

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.12.2025.P.08.10 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RAHIMOVA NAZOKATXON KASIMDJONOVNA

**TALABALARNI O‘QITISH SIFATINI OSHIRISHDA IJTIMOIIY
YETUKLIKNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI**

19.00.06 - Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.DSc/P191 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.urdu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Nazarov Akmal Mardonovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Safarov Dilmurod Xalimovich
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Atabayeva Nargis Batirovna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Abdullayev Mehridin Junaydulloyevich
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:


Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.P.08.10 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «13» avgust kuni soat 14⁰⁰ daqiqligida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14; faks: +99865 221-27-57; e-mail: buxdu.rektor@buxdu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (Manzil: 200101, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: +99865 221-29-14).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «27» iyul da tarqatildi.

(2026-yil «27» iyul daqiqligida 25 raqamli reestr bayonnomasi.)


X.X. Jabborov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi o'rinbosari, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Sh.Sh. Rustamov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

A.A. Xuseynova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda raqamli transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi, kommunikatsion imkoniyatlarning kengayishi va axborot oqimlarining tezlashuvi sharoitida shaxsning ijtimoiy yetuklik darajasini tadqiq etish muhim psixologik muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Yevropa Ittifoqi Ta'lim Komissiyasining 2023-yilgi ma'lumotlariga ko'ra, ta'lim jarayoni ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni rivojlantirish bilan uyg'unlashtirilgan tizimlarda talabalarining o'qitish samaradorligi yuqori natijalarni namoyon etgan. Mazkur ko'rsatkich Germaniya va Skandinaviya davlatlarida 45 foizni, AQSh hamda Kanadada esa 38 foizni tashkil etgan. Bunday yondashuvlar talabalarda o'zini-o'zi anglash, shaxslararo munosabatlarda mas'uliyatni his etish va boshqalarning fikrini inobatga olish kabi fazilatlarni shakllantirish orqali ta'lim jarayonining mustahkam psixologik asosini yaratishga xizmat qilmoqda¹.

Jahon ilmiy-tadqiqot markazlari va ta'lim muassasalarida shaxsning ijtimoiy yetukligi, ta'limga munosabati hamda psixologik barqarorligiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Globallashtirish sharoitida o'qituvchidan nafaqat fan doirasidagi bilimlarga ega bo'lish, balki ta'lim jarayonida ijtimoiy-psixologik muvozanatni ta'minlash, talabalarda ijobiy ijtimoiy xulq-atvor modelini shakllantirish hamda ularning ijtimoiy munosabatlarda sog'lom pozitsiyani egallashiga ko'maklashish qobiliyati ham talab etiladi. Xalqaro ijtimoiy psixologiya assotsiatsiyasi (ISPA) tomonidan 2022-yilda 70 dan ortiq oliy ta'lim muassasasi ishtirokida o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy yetuklik komponentlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan trening va mashg'ulotlarda qatnashgan talabalarining akademik ko'rsatkichlari 1,8 baravar yuqori bo'lgan. Mazkur holat talabalarda ijtimoiy yetuklik xususiyatlarini tadqiq etish, ularni ijtimoiy voqelikni to'g'ri idrok etadigan, murakkab hayotiy vaziyatlarga bardoshli va mas'uliyatli shaxs sifatida shakllantirish masalasining dolzarblashtirmoqda².

Respublikamizda so'nggi yillarda yoshlarni zamonaviy bilim va keng dunyoqarashga ega, ilm-fan, ma'naviyat, san'at, adabiyot hamda sport bilan faol shug'ullanuvchi yetuk shaxs sifatida tarbiyalashga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da ijtimoiy faol va mas'uliyatli fuqarolarni tarbiyalash, ularda ta'lim-tarbiya jarayoni orqali ilg'or ijtimoiy sifatlarni shakllantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 2023-yil 28-avgust kuni ta'lim sifatini oshirish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda: «Agar biz har bir yoshni hayotga tayyorlay olmasak, ularning aqliy salohiyati bilan birga, ijtimoiy mas'uliyatini, jamoaga foydali bo'lish tuyg'usini ham rivojlantira olmasak, biz barqaror jamiyat qurishga erisha olmaymiz», deb alohida ta'kidlagan³. Mazkur fikr talabalarga nafaqat kasbiy bilim berish, balki ularda psixologik va ijtimoiy yetuklikni

¹ https://commission.europa.eu/education_en

² <https://ispaweb.org/>

³ <https://president.uz/oz/lists/view/6622>

rivojlantirish ham barqaror jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi muhim strategik vazifa ekanligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son «O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida»gi Farmonlari, 2025-yil 13-sentyabrdagi 578-sonli «Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida»gi, 2025-yil 10-martdagi 149-son «Oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida»gi, Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2020-yil 31-dekabrdagi 824-son «Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari, shuningdek mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi⁴.

Talabalarda ijtimoiy yetuklikni shakllantirishga qaratilgan psixologik determinantlarni o'rganishga doir ilmiy tadqiqotlar dunyoning quyidagi yetakchi ta'lim tashkilotlari va ilmiy-tadqiqot markazlarida, jumladan: shaxslararo munosabatlarda ijtimoiy barqarorlik, empatiya, o'zini tutish va ijtimoiy rolni anglash mexanizmlari Kaliforniya universiteti, Stenford universiteti (AQSH), London universiteti kolleji (Buyuk Britaniya), Amerika Psixologlar Assotsiatsiyasi (APA, AQSH), Bergish universiteti (Germaniya), Melburn universiteti (Avstraliya), Singapur Milliy universiteti (Singapur) hamda M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya)da izchil olib borilmoqda.

Jahonda talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikni psixologik jihatdan rivojlantirishga doir tadqiqotlar asosida quyidagi muhim ilmiy natijalar aniqlangan: ijtimoiy-emotsional barqarorlik va mas'uliyat fenomeni tahlil etilgan (Kaliforniya universiteti, AQSh); talabalarda ijtimoiy identifikatsiya va o'zaro ta'sir modellarining evolyutsiyasi ishlab chiqilgan (Stenford universiteti, AQSh); ijtimoiy yetuklikning psixologik diagnostikasi va baholash tizimlari yaratilgan (London

⁴ <https://www.universityofcalifornia.edu>, www.stanford.edu, www.manchester.ac.uk, <https://www.apa.org>, www.uni-wuppertal.de, www.unimelb.edu.au, <https://nus.edu.sg>, www.unitn.it, <https://en.snu.ac.kr>, <http://www.mapn.su>, www.pirao.ru, msu.ru.

universiteti kolleji, Buyuk Britaniya); ijtimoiy ong va refleksiya asosidagi yondashuvlar takomillashtirilgan (APA, AQSh); psixologik moslashuvchanlik va bardoshlilik darajalari empirik o'rganilgan (Bergish universiteti, Germaniya); talabalar shaxsiy mas'uliyatining kognitiv manbalari aniqlangan (Melburn universiteti, Avstraliya); ijtimoiy motivatsiya va shaxslararo moslashuv determinantlari ochib berilgan (Singapur Milliy universiteti, Singapur); psixologik sog'lomlik va ijtimoiy barqarorlik integratsiyasi modellariga asoslangan ilmiy asoslar yaratilgan (M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Rossiya Federatsiyasi).

Jahon miqyosida talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikni shakllantirish bo'yicha ustuvor ilmiy yo'nalishlar sifatida quyidagilar ajratib ko'rsatilmoqda: talabalarda o'zini-o'zi anglash, shaxslararo mas'uliyat va ijtimoiy qaror qabul qilishga tayyorgarlik holatlarini aniqlash; ijtimoiy-psixologik determinantlar asosida yangicha innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish; funksional va emotsional-hissiy holatlarni psixodiagnostika qilish; o'quv jarayonida ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishga qaratilgan korreksion va rivojlantiruvchi metodikalarni joriy etish hamda ularning ta'sirchanlik darajasini tizimli monitoring qilish. Bularning barchasi ijtimoiy barqaror, psixologik jihatdan yetuk shaxsni shakllantirish orqali o'qitish sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz pedagog, psixolog olimlaridan Z.E. Abduraxmonova, Sh.R. Baratov, M.G. Davletshin, V.M. Karimova, S.X. Jalilova, G.I. Maxmutova, Q. Nazarov, Z.T. Nishonova, N.S. Safayev, R.I. Sunnatova, Sh.Z. Taylanova, V.A. Tokareva, N.Sh. Umarova, E.Z. Usmonova, A.A. Fayzullayev, G'.B. Shoumarov, X.A. Tillashayxova, B.X. Xodjayev, E.G'.G'oziyev⁵ va boshqalar talabalarni o'qitish sifatini oshirish jarayonida shaxsiy kamolot, kasbiy o'sish, ijtimoiy rollarni anglash, shuningdek, ijtimoiy yetuklikni

⁵ Abduraxmonova Z.E. Yoshlarda milliy birlik tuyg'usi shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari: psixologiya fanlari nomzodi ... diss. – T., 2006. – 129 b.; Baratov Sh.R. Социально-психологические и научно-практические основы создания психологической службы в Узбекистане: автореф. дис. ... д-ра психол. наук. – T., 1998. – 37 с.; Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 1999. – B. 30.; Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya: darslik. – T.: «Fan va texnologiyalar» nashriyoti, 2012. – 172 b.; Maxmutova G.I. Oliy pedagogik ta'lim tizimida talabalarni ma'naviy shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari: pedagogika fanlari nomzodi ... diss. – T., 2004. – 179 b.; Nazarov Q. Qadriyat tizimi: barqarorlik va o'zgaruvchanlik dialektikasi: aksiologiyaning ijtimoiy-falsafiy muammolari: falsafa fanlari doktori ... diss. – T., 1996. – 311 b.; Nishanova Z.T. Oliy maktab psixologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2003. – 136 b.; Сафаев Н.С. Духовность и национальное самосознание личности: монография. – Ташкент: Фан, 2004. – С. 211.; Суннатова Р.И. Феномен учебной лени старшеклассников и удовлетворённость отношением значимых взрослых и одноклассников // Перспективы науки и образования. – 2022. – № 1 (55). – С. 410-425.; Taylanova Sh.Z. Pedagogika oliy ta'lim muassasasi talabalarida qadriyatlar tizimini shakllantirish («Pedagogika tarixi» fani misolida): pedagogika fanlari nomzodi ... diss. – T., 2012. – 176 b.; Токарева В.А. Психология нравственного развития личности студента: феноменология, типология, закономерности: дис. ... д-ра психол. наук: 19.00.07 / НИИ общей и педагогической психологии. – Ташкент, 1991. – 320 с.; Усманова Э.З. Мотивационно-эмоциональная регуляция мышления в условиях интеллектуального конфликта. – Ташкент: Ўқитувчи, 1993. – 100 с.; Файзуллаев А.А. Мотивационная саморегуляция личности. – Ташкент: Фан, 1987. – 133 с.; Shoumarov G.B. O'zbekiston ta'lim tizimida psixologik xizmat muammolari // Yangi turdagi o'rta maxsus o'quv yurtlarida ta'lim va tarbiyaning samaradorligini oshirishning psixologik muammolari. – Toshkent, 1998. – B. 13-15.; Tillashayxova X.A. Talaba-yoshlar psixologik farovonligi va ijtimoiy yetukligi shakllanish dinamikasining xususiyatlari (pedagogika oliygohlari misolida): psixologiya fanlari doktori ... diss. – T., 2024. – 311 b.; Xodjayev B.X. Pedagogik aksiologiya. – T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2012. – 165 b.; G'oziyev E.G'. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2014. – 118 b.;

belgilovchi psixologik determinantlar bilan bog‘liq jihatlarni tadqiq etishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari V.I.Dal, M.A.Emelyanova, A.B.Ivashenko, A.L.Juravlev, A.R.Lopatin, N.A.Nevzorova, A.V.Petrovskiy, M.I.Plugina, V.M.Rusalov, I.A.Rudnev, I.N.Semenov va boshqalar ijtimoiy yetuklik fenomenining o‘ziga xos jihatlari, talabalarning o‘quv faoliyatida o‘zini o‘zi boshqarish masalalari tadqiq qilingan⁶.

Xorij tadqiqotchilaridan A.Bandura, M.Arnold, U.Bronfenbrenner, E.Erikson, D.Goleman, D.I.Feldshteyn, Z.Freyd, J.Kelli, L.Kolberg, J.Piaje, J.Rotter, B.F.Skinner, G.Sullivan, K.Xelkama va boshqalar shaxsning ijtimoiy rivojlanishi, ijtimoiy muhit hamda ijtimoiy yetuklik va emotsional intellekt o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan⁷.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy tadqiqot rejasiga muvofiq PZ-202005236-raqamli «Oila psixologiyasi fanidan multimedia mahsulotini yaratish» mavzusidagi amaliy loyihalari doirasida bajarilgan (2021-2022 yy.).

Tadqiqotning maqsadi talabalarni o‘qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikning psixologik determinantlarini o‘rganish va uni ilmiy-uslubiy jihatdan takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

talabalarni o‘qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetukligini tavsiflovchi asosiy pedagogik-psixologik komponentlarni aniqlash;

⁶ Даль В.И. Толковый словарь живого великорусского языка: в 4 т. Т. 1: А-З. – М., 1994.; Емельянова М.А. Концепция развития социальной зрелости будущего социального педагога //Вестник Оренбургского государственного университета. – Оренбург, 2005. – № 10 (34). – С. 123-129.; Иващенко А.В. Социальная зрелость студентов //Учитель. – 2004. – № 6. – С. 158-165.; Журавлев А.Л. Социально-психологическая зрелость: обоснование понятия //Психологический журнал. – 2007. – Т. 28. – № 2. – С. 44-55.; Лопатин А.Р. Формирование социальной зрелости: теория и практика. – Кострома: КГУ им. Н.А. Некрасова, 2012. – 127 с.; Невзорова Н.А. Педагогическое сопровождение процесса становления социальной зрелости учащихся подросткового и юношеского возраста //Общество. Среда. Развитие. – 2010. – № 3 (16). – С. 124-128.; Петровский А.М. Особенности становления социальной зрелости. – М.: Педагогика, 2004. – С. 67-90.; Плугина М.И. Социальная зрелость как показатель продуктивного становления личности // Социальная психология малых групп: материалы VI Всероссийской научно-практической конференции, посвящённой памяти А.В. Петровского, 20-21 октября 2014 г. – С. 289-292.; Рusalov В.М. Психологическая зрелость: единая или множественная характеристика? // Психологический журнал. – 2006. – Т. 27. – № 5. – С. 83-91.; Руднева И.А. Социальная зрелость: современный взгляд на проблему //Региональная конференция молодых исследователей Волгоградской области: направление 12 «Педагогика и психология». – Волгоград: Перемена, 2006. – С. 117-120.; Семенов И.Н., Степанов С.Ю. От психологии рефлексии к рефлексивной культуродигме в психологии // Рефлексия в науке и обучении. – Новосибирск: ИФП СО РАН, 2009. – С. 144-153.

⁷ Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 2015.; Arnold M.B. Emotion and Personality. Vol. I: Psychological Aspects. – New York: Columbia University Press, 1960.; Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 2019.; Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W.W. Norton & Company, 2013.; Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. – New York: Bantam Books, 2005.; Feldshtein D.I. Psixhologicheskie osnovy razvitiya lichnosti v protsesse obucheniya i vospitaniya. – Moskva: Vldos, 2004.; Freud S. The Ego and the Id. – London: Hogarth Press, 1923.; Kelly G.A. The Psychology of Personal Constructs. – New York: Norton, 2011.; Kohlberg L. The Philosophy of Moral Development: Moral Stages and the Idea of Justice. – San Francisco: Harper & Row, 2012.; Piaget J. The Psychology of Intelligence. – London: Routledge & Kegan Paul, 2004.; Rotter J.B. Generalized Expectancies for Internal Versus External Control of Reinforcement // Psychological Monographs. – 2006. – Vol. 80. – № 1. – P. 1-28.; Skinner B.F. About Behaviorism. – New York: Alfred A. Knopf, 2004.; Sullivan H.S. The Interpersonal Theory of Psychiatry. – New York: Norton, 2011.; Helkama K., Myllyniemi R., Liebkind K. Johdatus sosiaalipsykologiaan (Introduction to Social Psychology). – Helsinki: Edita Publishing, 2004.

talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning mezonlari va darajalarini aniqlash;

talabalar ijtimoiy yetukligini rivojlantirishda shaxs darajasining ahamiyatini tadqiq qilish;

talabalar ijtimoiy yetukligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi shaxs o'z-o'ziga munosabat, refleksiya hamda motivatsiya omillarini ahamiyatini aniqlash;

talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikni oshirishga oid psixologik trening dasturini ishlab chiqish va samaradorligini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikning psixologik determinantlari tanlangan bo'lib, tadqiqotga O'zbekiston Milliy universitetidan 140 nafar, Buxoro davlat universitetidan 110 nafar hamda Samarqand davlat universitetidan 100 nafar, jami 350 nafar talabalar respondent sifatida jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikning psixologik determinantlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda kuzatish, suhbat, intervyu metodlaridan, shuningdek, Gerbachevskiyning «Intilish darajasi» testi, V.V.Stolin va S.R.Panteleevlarning "Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash" metodikasi, A.V.Karpovning "Shaxsdagi refleksiya darajalarini o'rganish metodikasi", T.O.Gordeyeva, O.A.Sechev va E.N.Osinlarning "Akademik motivatsiya shkalasi" metodikasi, Permning "O'quv faoliyati uslubi so'rovnomasi" hamda hammualiflikda ishlab chiqilgan (A.M.Nazarov, N.K.Rahimova) "Talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklik darajasini aniqlovchi psixologik so'rovnoma"sidan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan chastotali tahlil, Kolmogorov-Smirnov mezon, Mann-Uitni – U-mezonlari hamda Ch.Spirmenning noparametrik korrelyatsion tahlil mezonlari orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarining ta'lim jarayonidagi psixologik xususiyatlariga ko'ra, shaxsning samarali ijtimoiy munosabatlarga kirishishidagi adaptiv ko'nikmalari hamda aniq maqsad belgilab unga intilishi bilan bog'liq barqaror axloqiy va psixologik sifatlarning kasbiy shakllanishda ustuvor namoyon bo'lishi muhimligi tufayli shaxsiy mas'uliyat, tolerantlik, hamkorlik va moslashuvchanlik ijtimoiy yetuklikning asosiy mezonlari ekanligi isbotlangan;

talabalarining o'ziga bo'lgan konstruktiv munosabatiga ko'ra, o'quv guruhlaridagi samimiylik tolerantlikni, o'ziga bo'lgan ishonch va o'zini qabul qilish shaxsiy mas'uliyatni, o'zini idora qilish esa hamkorlikka intilishni rivojlanishiga olib kelganligi tufayli ta'lim jarayoni sifatini oshirishda shaxslararo munosabatdagi refleksiya orqali ijtimoiy yetuklikning mediatsion roli asoslangan;

talabalarining shaxsiy intilishlar darajasi bilim olish va kasb sir-asrorini egallashga bo'lgan ichki motivlar shaxsiy mas'uliyat, tolerantlikni, tashabbuskorlik esa hamkorlikdagi ta'limni kuchaytirganligi tufayli o'quv faoliyatidagi shaxsiy yetuklikni o'zaro integratsiyalashgan motivatsion mexanizm orqali ta'minlovchi

psixologik determinant ekanligi dalillangan;

talabalar o'qitish sifatini oshirishga ijtimoiy yetuklikning ta'siri natijasida ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi "eksternal hamda didaktik amotivatsiya"ni pasaytirib shaxsiy mas'uliyat, o'zaro hamkorlik va tolerantlik sifatlarining rivojlanishiga olib kelganligi tufayli akademik motivatsiyaning ijtimoiy moslashuvchanlik xususiyatiga integrativ namoyon bo'lishi ta'minlanishi isbotlangan;

talabalarda ijtimoiy yetuklik darajasini oshirishga ta'sir etuvchi psixologik determinantlarning iyerarxik modeli shaxsiy qadriyatlar, ijtimoiy motivatsiya, kommunikativ kompetensiya, o'quv faolligi o'rtasidagi o'zaro integratsiyaga asoslanib tuzilmadagi motivatsion, kognitiv, refleksiv komponentlarni emotsional kompetentlik orqali intereorizatsiyalash mexanizmi asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklik rolini o'rganishga oid ilmiy manbalarni tahlil qilinib tadqiqot maqsadiga mos ravishda tizimlashtirilgan;

talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning metodik asoslari takomillashtirilgan;

talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishga doir treninglar majmui ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot jarayonida to'plangan ma'lumotlarning ishonchliligi tadqiqot obyektlarining O'zbekiston muhitida tanlanganligi, olingan empirik miqdorlar matematik-statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi, ilmiy jihatdan asoslanganligi, xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, matematik-statistikaning aniq metodlari qo'llangani, sinaluvchilar tanlanma to'plamining hajmi va uning reprezentativligi, empirik izlanishlar nazariy chuqur asoslab berilgani, aniqlangan ko'rsatkichlarning boshqa mualliflar taqdim etgan ma'lumotlar bilan qiyosiy tahlil etilib, bunda ishonchli manbalarga asoslanganligi, empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi, xulosa va amaliy takliflarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli organlar va tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ular talabalarining o'quv faoliyatini ijtimoiy yetuklik asosida takomillashtirishning individual, ijtimoiy, pedagogik, psixologik omillarga bog'liq jihatlari to'g'risidagi ilmiy tasavvurlarni boyitadi va muayyan konseptual nazariyasini shakllanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqotdan olingan talabalarining o'quv faoliyatini ijtimoiy yetuklik asosida rivojlantirishni tashxis qilish mezonlari va uning kognitiv strukturaviy tuzilishiga oid ilmiy xulosalardan pedagogika va psixologiya yo'nalishlardagi ilmiy tadqiqotlarda manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan ma'lumotlardan oliy ta'lim muassasalarining o'quv faoliyati va ta'lim sifati samaradorligini oshirish, talabalarining o'quv faoliyatini ijtimoiy yetuklik asosida rivojlantirish bo'yicha

o'ziga xos psixologik xususiyatlarni tadqiq qiluvchi metodikalarni qo'llash, talabalar ta'lim motivatsiyasini rivojlanish qonuniyatlari izohlangan ma'lumotlardan esa «Umumiy psixologiya», «Kognitiv psixologiya», «Intelлект psixologiyasi», «Pedagogik psixologiya» fanlaridan o'quv qo'llanma, darsliklar tayyorlashda, psixologik lug'atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: “Talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikning psixologik determinantlari” mavzusi bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

talabalarining ta'lim jarayonidagi psixologik xususiyatlariga ko'ra, shaxsning samarali ijtimoiy munosabatlarga kirishishidagi adaptiv ko'nikmalari hamda aniq maqsad belgilab unga intilishi bilan bog'liq barqaror axloqiy va psixologik sifatlarning kasbiy shakllanishda ustuvor namoyon bo'lishi muhimligi tufayli shaxsiy mas'uliyat, tolerantlik, hamkorlik va moslashuvchanlik ijtimoiy yetuklikning asosiy mezonlari ekanligi isbotlanganligiga oid takliflar Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-374-son buyrug'i bilan “Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya” moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-374a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetukligini tavsiflovchi asosiy pedagogik-psixologik komponentlar aniqlashtirilgan;

talabalarining o'ziga bo'lgan konstruktiv munosabatiga ko'ra, o'quv guruhlaridagi samimiylik tolerantlikni, o'ziga bo'lgan ishonch va o'zini qabul qilish shaxsiy mas'uliyatni, o'zini idora qilish esa hamkorlikka intilishni rivojlanishiga olib kelganligi tufayli ta'lim jarayoni sifatini oshirishda shaxslararo munosabatdagi refleksiya orqali ijtimoiy yetuklikning mediatsion roli asoslanganligiga oid ma'lumotlar Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-374-son buyrug'i bilan “Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya” moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-374a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning mezonlari va darajalari aniqlangan;

talabalarining shaxsiy intilishlar darajasi bilim olish va kasb sir-asrorini egallashga bo'lgan ichki motivlar shaxsiy mas'uliyat, tolerantlikni, tashabbuskorlik esa hamkorlikdagi ta'limni kuchaytirganligi tufayli o'quv faoliyatidagi shaxsiy yetuklikni o'zaro integratsiyalashgan motivatsion mexanizm orqali ta'minlovchi psixologik determinant ekanligi dalillanganligiga oid ma'lumotlar Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-374-son buyrug'i bilan “Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya” moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy

Markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-374a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada talabalar ijtimoiy yetukligini rivojlantirishda shaxslilik darajasining ahamiyati tadqiq qilingan;

talabalar o'qitish sifatini oshirishga ijtimoiy yetuklikning ta'siri natijasida ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasi "eksternal hamda didaktik amotivatsiya"ni pasaytirib shaxsiy mas'uliyat, o'zaro hamkorlik va tolerantlik sifatlarining rivojlanishiga olib kelganligi tufayli akademik motivatsiyaning ijtimoiy moslashuvchanlik xususiyatiga integrativ namoyon bo'lishi ta'minlanishi isbotlanganligiga oid ilmiy yangilik Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-374-son buyrug'i bilan buyrug'i bilan "Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya" moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-374a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada talabalar ijtimoiy yetukligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi shaxs o'z-o'ziga munosabat, refleksiya hamda motivatsiya omillarining ahamiyati aniqlashtirilgan;

talabalarda ijtimoiy yetuklik darajasini oshirishga ta'sir etuvchi psixologik determinantlarning iyerarxik modeli shaxsiy qadriyatlar, ijtimoiy motivatsiya, kommunikativ kompetensiya, o'quv faolligi o'rtasidagi o'zaro integratsiyaga asoslanib tuzilmadagi motivatsion, kognitiv, refleksiv komponentlarni emotsional kompetentlik orqali inteorizatsiyalash mexanizmi asosida takomillashtirilganligiga oid ilmiy yangilik Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2025-yil 19-iyundagi PM-374-son buyrug'i bilan buyrug'i bilan "Psixologik trening asoslari" moduliga kiritilgan (Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy Markazining 2025-yil 16-iyundagi PM-374a-sonli ma'lumotnomasi). Natijada talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikni oshirishga oid psixologik trening dasturini ishlab chiqilgan va samaradorligi baholangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning natijalari 2 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy konferensiyalarda muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqotning asosiy natijalari bo'yicha 1 ta monografiya, 15 ta ilmiy maqola, shulardan 9 tasi O'zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan jurnallarda, shu jumladan, 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, o'n ikkita paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 216 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

«**Kirish**» qismda dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, zarurati, maqsad va vazifalar belgilangan, metodlar, obyekt va predmet ko'rsatilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor

yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotda olingan natijalarning ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, ularning amaliyotda tadbiq etilishi, ilmiy nashrlarda e'lon qilinishi, dissertatsion ishning tuzilishi yuzasidan ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **«Talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikni tadqiq etishning nazariy asoslari»** deb nomlangan birinchi bobida ijtimoiy yetuklik fenomeni, talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikning ilmiy jihatlarini tadqiq etilishi va uning namoyon bo'lishi, uning vazifalari, mexanizmlari xorij va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilishi shuningdek, tushunchalarning tahliliy sharhi keltirilgan.

O'zbek olimlaridan N.B.Atabayeva, M.G.Davletshin, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishonova, X.A.Ruxiyeva, A.A.Fayzullayev, F.I.Xaydarov, M.Hakimova, N.I.Xalilova, E.G'.G'oziyev va boshqalar tomonidan talabalarning individual-tipologik xususiyatlari hamda ijtimoiy yetukligini rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar bo'yicha tadqiqotlar olib borilgan.

Xorij olimlaridan V.A.Adolf, A.N.Kokun, A.Maslou, L.San, T.Sato, M.N.Sexmistrenko, K.Fridmutter, Z.Freyd, Sh.P.Sharma, K.Yung, N.Xill, K.Xorni, F.Shteininger, T.Hirschi, L.Kohlberg, E.Sutherland, R.Agnew, M.Rutter, A.Maslou, T.Moffitt, D.P.Farrington va boshqalar ta'lim oluvchilarda ijtimoiy yetuklik tushunchasi va mohiyati hamda insonning taraqqiy etishida ijtimoiy yetuklikning xususiyatlari, talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlanishi va shakllanishiga qaratilgan hamda bilish jarayonlarida faoliyatidagi o'rni ilmiy tadqiq etilgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan T.Y.Donilov, O.V.Gorbunov, A.N.Yeremina, G.I.Gaysina, O.V.Temruk, G.G.Aleksandrova, A.G.Portnova, Y.L.Xolodseva, M.M.Glavatskix, L.V.Mixaylova, Y.G.Kameneva va boshqalar talaba shaxsining shakllanishida ijtimoiy-psixologik yetuklikning ta'siri to'grisida tadqiqotlar olib borishgan.

Dissertatsiyaning **«Talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik tamoyillari»** deb nomlangan ikkinchi bobi o'rganilayotgan muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, ushbu bobda tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, tadqiqotda qo'llanilgan metodlarning umumiy tavsifi, o'tkazish tartibi o'z aksini topgan. Zamonaviy talabalar ijtimoiy yetukligining aniqlashtirilgan tuzilishi tadqiqotning muhim jihatiga kiradi. Ammo asosan o'rganilayotgan muammoning nazariy jihatini aks ettiradi. Dissertatsion tadqiqotning mantiqiy davom etishi, tarkibiy qismlar tegishli bo'linishni amalga oshirishga imkon beradigan va psixologik ta'sir asoslarini shakllantirishning muayyan vektoriga kiradigan ijtimoiy yetuklikni rivojlantirish jarayonini ishlab chiqishga asoslangan o'tish uchun psixodiagnostik jihatni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Endi, "Talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklik darajasini aniqlovchi psixologik so'rovnoma" bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahliliga o'tamiz.

«Talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklik darajasini aniqlovchi psixologik so'rovnoma» asosida olingan dastlabki natijalar tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko'ra, «shaxsiy mas'uliyat» ($t=-2,2$; $p\leq 0,05$), «hamkorlik» ($t=-2,8$;

$p \leq 0,05$), «tolerantlik» ($t = -2,4$; $p \leq 0,05$) hamda «ijtimoiy moslashuvchanlik» ($t = -2,7$; $p \leq 0,05$) omillari bo'yicha statistik jihatdan ishonchli va ahamiyatli farqlar aniqlandi.

1-jadval.

“Talabalarni o‘qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklik darajasini aniqlovchi psixologik so‘rovnoma” bo'yicha olingan dastlabki natijalar tahlili (n=350)

Omillar	O‘rtacha (M)		Farqlar
	2-bosqich (n=160)	4-bosqich (n=190)	T
Shaxsiy mas’uliyat	4,4	6,5	-2,2*
Hamkorlik	5,1	7,2	-2,8*
Tolerantlik	6,4	4,1	-2,4*
Ijtimoiy moslashuvchanlik	5,4	7,2	-2,7*

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$.

Metodikaning «shaxsiy mas’uliyat» omili bo'yicha 4-bosqich talabalarida 2-bosqich talabalariga nisbatan yuqori natijalar qayd etildi ($t = -2,2$; $p \leq 0,05$). Mazkur natija yuqori bosqich talabalarining ta’lim jarayoniga jiddiy munosabatda bo’lishi, o’z vazifalarini belgilangan muddatlarda bajarishga intilishi hamda faoliyatini aniq rejalashtira olishi bilan izohlanadi. O’z xatti-harakatlari va qarorlari uchun javobgarlikni his etish talabalarning ichki motivatsiyasini kuchaytirib, ta’lim jarayonida belgilangan maqsadlarga erishishiga yordam beradi. Shaxsiy mas’uliyat o’zini o’zi boshqarish qobiliyati va ijtimoiy yetuklik o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni ta’minlaydi. Shuningdek, u talabalarning o’z faoliyati natijalarini tahlil qilish, yo’l qo’yilgan kamchiliklarni anglash va tegishli xulosalar chiqarish ko’nikmalarini rivojlantiradi. Shu jihatdan, 4-bosqich talabalarida «shaxsiy mas’uliyat» ko’rsatkichining yuqoriligi ularning akademik va ijtimoiy faoliyatdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim psixologik asos bo’lib xizmat qiladi.

«Hamkorlik» omili bo'yicha ham 4-bosqich talabalarida yuqori natijalar kuzatildi ($t = -2,8$; $p \leq 0,05$). Ushbu ko’rsatkich ularning jamoaviy faoliyatda o’z vazifalari va rollarini to’g’ri belgilashi, umumiy maqsadlarga erishishda o’zaro yordam va qo’llab-quvvatlash tamoyillariga amal qilishi bilan tavsiflanadi. Hamkorlikning yuqori darajada namoyon bo’lishi talabalar o’rtasida o’zaro hurmat, ishonch, sog’lom muloqot va fikr almashish madaniyatining shakllanganligini ko’rsatadi. Jamoaviy faoliyat jarayonida ular yuzaga kelishi mumkin bo’lgan ziddiyatlarni konstruktiv hal etish, murosaga kelish hamda umumiy qaror qabul qilish ko’nikmalarini egallaydi. Mazkur xususiyatlar talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyatida samarali muloqot o’rnatishi va jamoa bilan hamkorlikda ishlashiga zamin yaratadi. Demak, «hamkorlik» talabalarning ijtimoiy yetukligini rivojlantiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Metodikaning «tolerantlik» omili bo'yicha 2-bosqich talabalarida yuqori natijalar aniqlandi ($t = -2,4$; $p \leq 0,05$). Bu holat mazkur bosqich talabalarining boshqalarning fikr va qarashlariga nisbatan ochiqligi, turli qadriyatlar hamda nuqtayi nazarlarni qabul qilishga moyilligi bilan izohlanadi. Tolerantlikning yuqori darajasi talabalar o’rtasida bag’rikenglik, o’zaro hurmat va xilma-xillikni qadrlash

munosabatlarini shakllantiradi. Shuningdek, ushbu omil insoniy qadriyatlarni anglash, ularga amal qilish va turli ijtimoiy guruh vakillari bilan konstruktiv munosabat o'rnatish madaniyatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Tolerantlik ta'lim jarayonida o'zaro tushunishni chuqurlashtirib, hamkorlikni kuchaytirishi hamda barqaror ijtimoiy-psixologik muhitni ta'minlashi bilan ahamiyatlidir.

«Ijtimoiy moslashuvchanlik» omili bo'yicha 4-bosqich talabalarida yuqori natijalar qayd etildi ($t=-2,7$; $p \leq 0,05$). Mazkur natija yuqori bosqich talabalarining turli ijtimoiy vaziyatlarda o'z xulq-atvorini muvofiqlashtira olishi, ijtimoiy rollarini ongli ravishda bajarishi va jamoat hayotida faol ishtirok etishi bilan tavsiflanadi. Ijtimoiy moslashuvchanlik stressli va murakkab vaziyatlarda psixologik barqarorlikni saqlash, yuzaga kelgan muammolarga ijodiy yondashish hamda o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslashish imkonini beradi. Ushbu ko'nikmalar talabalarining jamoaviy faoliyatdagi muvaffaqiyatiga va kelajakdagi kasbiy faoliyatga samarali moslashishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ijtimoiy moslashuvchanlik shaxsiy yetuklikning rivojlanishini jadallashtirib, talabalarining ijtimoiy identifikatsiyasi va o'ziga xosligini mustahkamlaydi. Shu bois, mazkur omil ta'lim samaradorligini oshirish hamda talabalarni turli hayotiy va kasbiy vaziyatlarga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dissertatsiyaning «**Talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikni darajasini o'rganishning empirik asoslari**» deb nomlangan uchinchi bobida talabalarni o'qitish sifatini oshirishning psixologik jihatlari, ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar tahlili hamda olingan natijalarning tahliliga asoslangan korrelyatsion bog'lanishlar izohi o'z aksini topgan.

Navbatdagi bosqichda, tadqiqot ishimizdagi metodikalar orqali olingan korrelyatsion bog'lanishlar natijalariga to'xtalamiz.

2-jadval.

“Talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklik darajasini aniqlovchi psixologik so'rovnoma” hamda V.V.Stolin va S.R.Panteleevlarning “Shaxsning o'z-o'ziga munosabatini baholash” metodikasi omillari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahlili (n=350)

Omillar	Shaxsiy mas'uliyat	Hamkorlik	Tolerantlik	Ijtimoiy moslashuvchanlik
Samimiylik	0,12	0,11	0,36*	0,19
O'z-o'ziga ishonch	0,31*	0,13	0,15	0,13
O'zini-o'zi idora qilish	0,11	0,37*	0,10	0,17
O'z-o'ziga munosabatning aks etishi	0,14	0,12	0,21	0,32*
O'zini-o'zi qabul qilish	0,29*	0,17	0,19	0,14

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$.

«Talabalarni o‘qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklik darajasini aniqlovchi psixologik so‘rovnoma» hamda «Shaxsning o‘z-o‘ziga munosabatini baholash» metodikasi o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra, «shaxsiy mas’uliyat» omili «o‘z-o‘ziga ishonch» ($r=0,31$; $p\leq 0,05$) va «o‘zini-o‘zi qabul qilish» ($r=0,29$; $p\leq 0,05$) omillari bilan, «hamkorlik» omili «o‘zini-o‘zi idora qilish» omili bilan ($r=0,31$; $p\leq 0,05$), «tolerantlik» omili «samimiylik» omili bilan ($r=0,36$; $p\leq 0,05$), «ijtimoiy moslashuvchanlik» omili esa «o‘z-o‘ziga munosabatning aks etishi» omili bilan ($r=0,32$; $p\leq 0,05$) statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy korrelyatsion bog‘lanishga ega ekanligi aniqlandi.

«Shaxsiy mas’uliyat» va «o‘z-o‘ziga ishonch» omillari o‘rtasidagi ijobiy bog‘lanish ($r=0,31$; $p\leq 0,05$) talabalarda mas’uliyat hissining rivojlanishi ularning o‘z imkoniyatlariga bo‘lgan ishonchi bilan uzviy bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. O‘z xatti-harakatlari va qarorlari uchun javobgarlikni anglagan talaba ta’lim jarayonida mustaqil qaror qabul qilishga, vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarishga hamda o‘z faoliyatini maqsadga muvofiq rejalashtirishga intiladi. O‘z-o‘ziga ishonch esa murakkab vaziyatlarda qat’iyatlilikni saqlash, mavjud imkoniyatlarni real baholash va ulardan samarali foydalanishga yordam beradi. Mazkur omillarning uyg‘unligi talabaning akademik va ijtimoiy faoliyatdagi muvaffaqiyatini ta’minlab, aniq maqsadlarni belgilashi hamda ularga erishishda barqarorlik ko‘rsatishi uchun muhim psixologik asos yaratadi.

«Shaxsiy mas’uliyat» va «o‘zini-o‘zi qabul qilish» omillari o‘rtasidagi ijobiy bog‘lanish ($r=0,29$; $p\leq 0,05$) talabaning o‘z shaxsiy xususiyatlari, imkoniyatlari va kamchiliklarini adekvat qabul qilishi mas’uliyatli xulq-atvorning shakllanishiga xizmat qilishini anglatadi. O‘zini qabul qilgan talaba o‘z faoliyatini tanqidiy baholash, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish va o‘z ustida izchil ishlashga ko‘proq moyil bo‘ladi. Bunday munosabat o‘z qadr-qimmatini his etish, vazifalarga ijobiy yondashish va ijtimoiy hamda akademik muhitda barqaror faoliyat yuritishga imkon beradi. Shu bilan birga, mas’uliyatlilik va o‘zini qabul qilishning uyg‘unligi talabalarning o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholashi, maqsadlarini belgilashi va shaxsiy rivojlanish yo‘nalishlarini ongli ravishda tanlashga yordam beradi.

«Hamkorlik» va «o‘zini-o‘zi idora qilish» omillari o‘rtasidagi ijobiy bog‘lanish ($r=0,31$; $p\leq 0,05$) talabalarning jamoaviy faoliyatda samarali ishtirok etishi ularning o‘z xatti-harakatlarini boshqarish qobiliyati bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Hamkorlik talabadan jamoada o‘z o‘rnini anglash, umumiy maqsadlarga muvofiq harakat qilish, muloqot jarayonida o‘zaro hurmat va mas’uliyatni namoyon etishni talab qiladi. O‘zini-o‘zi idora qilish esa vazifalarni rejalashtirish, hissiy holatni nazorat qilish, shaxsiy intizomni saqlash hamda guruh manfaatlarini hisobga olgan holda faoliyat yuritish imkonini beradi. Ushbu omillarning o‘zaro uyg‘unligi talabalarning jamoaviy ishlarda faol qatnashishi, ziddiyatlarni konstruktiv hal etishi va umumiy natijaga erishishga munosib hissa qo‘shishini ta’minlaydi.

«Tolerantlik» va «samimiylik» omillari o‘rtasidagi ijobiy bog‘lanish ($r=0,36$; $p\leq 0,05$) talabalarning turli fikr, qarash va qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi ularning ochiq va ishonchli muloqot o‘rnatish qobiliyati bilan bog‘liqligini

aks ettiradi. Tolerantlik talabalarga boshqa shaxslarning nuqtayi nazarini qabul qilish, madaniy va ijtimoiy tafovutlarni qadrlash hamda nizoli vaziyatlarda bag'rikenglikni saqlash imkonini beradi. Samimiylik esa shaxslararo munosabatlarda ochiqlik, rostgo'ylik va o'zaro ishonchni mustahkamlaydi. Mazkur omillarning uyg'unligi ta'lim muhitida sog'lom ijtimoiy-psixologik munosabatlarni shakllantirish, jamoada hamkorlikni rivojlantirish va talabalar ijtimoiy yetukligini oshirishga xizmat qiladi.

«Ijtimoiy moslashuvchanlik» va «o'z-o'ziga munosabatning aks etishi» omillari o'rtasidagi ijobiy bog'lanish ($r=0,32$; $p\leq 0,05$) talabalarning turli ijtimoiy sharoitlarga moslashish qobiliyati ularning o'zini anglash va boshqalarning munosabatlarini idrok etish xususiyatlari bilan o'zaro aloqador ekanligini ko'rsatadi. Ijtimoiy moslashuvchanlik talabaga yangi muhit, talab va vaziyatlarga mos ravishda o'z xulq-atvorini o'zgartirish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish hamda ijtimoiy rollarni muvaffaqiyatli bajarish imkonini beradi. «O'z-o'ziga munosabatning aks etishi» esa shaxsning boshqalar tomonidan qanday baholanishini anglash, o'z ijtimoiy mavqeyi va xatti-harakatlariga nisbatan munosabatini shakllantirishga yordam beradi. Ushbu omillarning uyg'unligi talabalarning ijtimoiy muhitda psixologik barqarorlikni saqlashi, yangi sharoitlarga tez moslashishi va samarali faoliyat yuritishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Demak, aniqlangan korrelyatsion bog'lanishlar talabalarda ijtimoiy yetuklikning rivojlanishi o'z-o'ziga munosabatning ijobiy shakllari bilan chambarchas bog'liq ekanligini tasdiqlaydi.

3-jadval.

“Talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklik darajasini aniqlovchi psixologik so'rovnomma” hamda Gerbachevskiy tomonidan ishlab chiqilgan “Shaxs intilish darajasi” metodikasi omillari o'rtasidagi korrelyatsion bo'lanishlar tahlili (n=350)

Omillar	Shaxsiy mas'uliyat	Hamkorlik	Tolerantlik	Ijtimoiy moslashuvchanlik
Ichki motiv	0,18	0,11	0,39*	0,19
Bilish motivi	0,36*	0,18	0,12	0,17
Qochish motivi	0,13	0,11	0,14	- 0,33*
Musobaqalashuv motivi	0,14	0,09	0,08	0,12
Topshiriqlarning murakkabligi	0,12	0,07	0,05	0,16
Irodaviy quvvat	0,16	0,13	0,09	0,35*
O'z imkoniyatlarining bahosi	0,37*	0,18	0,12	0,11
Tashabbuskorlik	0,17	0,34*	0,14	0,18

Izoh: * $p\leq 0,05$; ** $p\leq 0,01$.

«Talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklik darajasini aniqlovchi psixologik so'rovnomasi» hamda Gerbachevskiy tomonidan ishlab chiqilgan «Shaxs intilish darajasi» metodikasi ko'rsatkichlari o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, «shaxsiy mas'uliyat» omili «bilish motivi» ($r=0,36$; $p\leq 0,05$) va «o'z imkoniyatlarini baholash» ($r=0,37$; $p\leq 0,05$) omillari bilan, «hamkorlik» omili «tashabbuskorlik» omili bilan ($r=0,34$; $p\leq 0,05$), «tolerantlik» omili «ichki motiv» omili bilan ($r=0,39$; $p\leq 0,05$) statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy bog'lanishga ega ekanligi aniqlandi. Shuningdek, «ijtimoiy moslashuvchanlik» omili «qochish motivi» bilan salbiy ($r=-0,33$; $p\leq 0,05$), «irodaviy quvvat» omili bilan esa ijobiy ($r=0,35$; $p\leq 0,05$) korrelyatsion bog'lanish hosil qilgan.

«Shaxsiy mas'uliyat» va «bilish motivi» omillari o'rtasidagi ijobiy bog'lanish ($r=0,36$; $p\leq 0,05$) talabalarning bilim olishga bo'lgan ichki ehtiyoji bilan o'z vazifalariga mas'uliyatli munosabatda bo'lishi o'zaro aloqador ekanligini ko'rsatadi. Mas'uliyat hissi rivojlangan talabalar o'quv topshiriqlarini o'z vaqtida va sifatli bajarishga, mustaqil izlanishga hamda o'z bilimlarini muntazam ravishda oshirishga intiladi. «Bilish motivi» esa talabaning yangi ma'lumotlarni egallashga qiziqishini kuchaytirib, ta'lim jarayonidagi faolligini oshiradi. Mazkur omillarning uyg'unligi bilimlarni chuqur o'zlashtirish, ularni amaliy faoliyatda qo'llash va akademik maqsadlarga erishish uchun muhim psixologik asos yaratadi. Demak, talabaning shaxsiy mas'uliyati ortib borishi uning bilishga bo'lgan ehtiyoji va ta'limiy faolligining kuchayishi bilan birga kechadi.

«Shaxsiy mas'uliyat» va «o'z imkoniyatlarini baholash» omillari o'rtasidagi ijobiy bog'lanish ($r=0,37$; $p\leq 0,05$) talabaning o'z qobiliyatlarini adekvat baholashi mas'uliyatli xulq-atvorning shakllanishiga xizmat qilishini anglatadi. O'z imkoniyatlarini to'g'ri baholay olgan talaba murakkab vazifalarni bajarishda mavjud salohiyatini hisobga oladi, kuch va vaqtini maqsadga muvofiq taqsimlaydi hamda faoliyat natijalari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Bunday munosabat talabaning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlab, akademik va shaxsiy rivojlanish maqsadlarini real belgilashiga yordam beradi. Shu jihatdan, «shaxsiy mas'uliyat» va «o'z imkoniyatlarini baholash» omillarining o'zaro uyg'unligi ta'lim jarayonidagi samaradorlik va barqaror muvaffaqiyatni ta'minlovchi muhim psixologik shartlardan biri hisoblanadi.

«Hamkorlik» va «tashabbuskorlik» omillari o'rtasidagi ijobiy bog'lanish ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) talabalarning jamoaviy faoliyatda faol ishtirok etishi ularning yangi g'oyalarni ilgari surish va mustaqil harakat boshlash qobiliyati bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Hamkorlik rivojlangan talabalar guruh a'zolari bilan ishonchli munosabat o'rnatib, umumiy maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan faoliyatni samarali tashkil etadi. Tashabbuskorlik esa ularga o'z fikrlarini erkin ifodalash, muammolarni hal etishning yangi usullarini taklif qilish va jamoaviy qarorlar qabul qilishda faol qatnashish imkonini beradi. Ushbu omillarning uyg'unligi talabalarning kommunikativ faolligi, ijodiy fikrlashi va jamoada yetakchilik xususiyatlari rivojlanishiga xizmat qiladi.

«Tolerantlik» va «ichki motiv» omillari o'rtasidagi ijobiy bog'lanish ($r=0,39$; $p\leq 0,05$) talabaning ichki ehtiyoj va qadriyatlarga asoslangan faoliyati boshqa shaxslarning fikr va qarashlarini hurmat qilish xususiyati bilan bog'liq ekanligini aks ettiradi. Ichki motivatsiyasi rivojlangan talaba o'z xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqaradi, shaxsiy maqsadlarini mustaqil belgilaydi va ularga erishishda barqarorlik namoyon etadi. Tolerantlik esa turli fikrlar, qadriyatlar va ijtimoiy pozitsiyalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, o'zaro muloqotda ochiqlikni saqlash imkonini beradi. Mazkur omillarning o'zaro uyg'unligi talabalar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar sifatini oshirib, sog'lom psixologik muhit va samarali hamkorlikning shakllanishiga yordam beradi.

«Ijtimoiy moslashuvchanlik» va «qochish motivi» o'rtasidagi salbiy bog'lanish ($r=-0,33$; $p\leq 0,05$) talabalarining yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashish qobiliyati kuchaygan sari qiyinchiliklardan chekinish moyilligi kamayib borishini ko'rsatadi. Qochish motivining yuqori darajada namoyon bo'lishi murakkab vazifalarni kechiktirish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishdan bosh tortish, stressli vaziyatlarda passiv pozitsiyani egallash kabi xatti-harakatlar bilan tavsiflanishi mumkin. Bunday holat talabaning jamoaviy faoliyatdagi ishtirokini cheklab, yangi sharoitlarda o'zini erkin va barqaror tutishiga to'sqinlik qiladi.

Ijtimoiy moslashuvchanligi yuqori bo'lgan talabalar esa o'zgaruvchan vaziyatlarga tez moslashadi, yuzaga kelgan muammolarni konstruktiv hal etishga intiladi va yangi tajribalarga ochiqlik namoyon qiladi. Ular stressli sharoitlarda mavjud ichki va tashqi resurslarini safarbar etib, qiyinchiliklarni yengishga yo'naltirilgan faol strategiyalarni tanlaydi. Demak, ijtimoiy moslashuvchanlikning rivojlanishi qochish motivining ta'sirini kamaytirib, talabalarining ta'lim jarayonidagi faolligi, o'ziga bo'lgan ishonchi va ijtimoiy rollarni muvaffaqiyatli bajarish qobiliyatini kuchaytiradi.

«Ijtimoiy moslashuvchanlik» va «irodaviy quvvat» omillari o'rtasidagi ijobiy bog'lanish ($r=0,35$; $p\leq 0,05$) talabalarining murakkab vaziyatlarda qat'iyatlilik namoyon etishi ularning o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashish qobiliyati bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Irodaviy quvvat talabaning qiyinchiliklarga bardosh berishi, belgilangan maqsaddan chekinmasligi va faoliyatini ongli ravishda boshqarishiga yordam beradi. Ijtimoiy moslashuvchanlik esa mavjud vaziyatni to'g'ri baholash, xulq-atvor strategiyasini sharoitga muvofiq o'zgartirish va yangi imkoniyatlardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Ushbu omillarning uyg'unligi talabalarining o'z resurslarini oqilona taqsimlashi, stressli vaziyatlarda psixologik barqarorlikni saqlashi va ta'limiy hamda ijtimoiy faoliyatda muvaffaqiyatga erishishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, aniqlangan korrelyatsion bog'lanishlar talabalarining ijtimoiy yetukligi bilish faolligi, tashabbuskorlik, ichki motivatsiya, o'z imkoniyatlarini adekvat baholash va irodaviy barqarorlik kabi psixologik xususiyatlar bilan o'zaro bog'liq holda rivojlanishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ijtimoiy moslashuvchanlikning kuchayishi qiyinchiliklardan qochishga moyillikning kamayishiga xizmat qilishi aniqlandi.

“Talabalarni o‘qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklik darajasini aniqlovchi psixologik so‘rovnoma” hamda T.O.Gordeyeva, O.A.Sechev va E.N.Osinlarning “Akademik motivatsiya shkalasi” metodikasi omillari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar tahlili (n=350)

Omilar	Shaxsiy mas’uliyat	Hamkorlik	Tolerantlik	Ijtimoiy moslashuvchanlik
Kognitiv motivatsiya	0,32*	0,21	0,13	0,19
Muvaffaqiyat motivatsiyasi	0,11	0,14	0,17	0,38*
O‘zini-o‘zi rivojlantirish	0,12	0,35*	0,20	-0,14
O‘zini-o‘zi hurmat qilish	0,34*	0,12	0,12	0,11
Introyektsiyalash (ichki) motivatsiya	0,15	0,18	0,33*	0,04
Eksternal (tashqi) motivatsiya	0,14	0,08	0,15	0,36*
Amotivatsiya	0,13	0,21	0,07	-0,32*

Izoh: * $p \leq 0,05$; ** $p \leq 0,01$.

«Talabalarni o‘qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklik darajasini aniqlovchi psixologik so‘rovnoma» hamda «Akademik motivatsiya shkalasi» metodikasi ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi korrelyatsion bog‘lanishlar tahlil qilindi. Natijalarga ko‘ra, «shaxsiy mas’uliyat» omili «kognitiv motivatsiya» ($r=0,32$; $p \leq 0,05$) va «o‘zini-o‘zi hurmat qilish» ($r=0,34$; $p \leq 0,05$) omillari bilan, «hamkorlik» omili «o‘zini-o‘zi rivojlantirish» omili bilan ($r=0,35$; $p \leq 0,05$), «tolerantlik» omili «introyektsiyalangan motivatsiya» omili bilan ($r=0,33$; $p \leq 0,05$) statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy bog‘lanishga ega ekanligi aniqlandi. Shuningdek, «ijtimoiy moslashuvchanlik» omili «muvaffaqiyat motivatsiyasi» ($r=0,38$; $p \leq 0,05$) va «eksternal motivatsiya» ($r=0,36$; $p \leq 0,05$) omillari bilan ijobiy, «amotivatsiya» omili bilan esa salbiy korrelyatsion bog‘lanish hosil qilgan ($r=-0,32$; $p \leq 0,05$).

«Shaxsiy mas’uliyat» va «kognitiv motivatsiya» omillari o‘rtasidagi ijobiy bog‘lanish ($r=0,32$; $p \leq 0,05$) talabalarning bilim olishga bo‘lgan ichki ehtiyoji ularning o‘z vazifalariga mas’uliyatli munosabatda bo‘lishi bilan o‘zaro aloqador ekanligini ko‘rsatadi. Shaxsiy mas’uliyati rivojlangan talabalar bilimlarni chuqur o‘zlashtirish, murakkab mavzularni mustaqil o‘rganish va olingan bilimlarni amaliyotda qo‘llashga ko‘proq intiladi. Kognitiv motivatsiya esa yangi bilimlarni izlash, tahlil qilish va o‘zlashtirish uchun zarur ichki turtkini ta’minlaydi. Mazkur omillarning uyg‘unligi talabalarning ta’limiy maqsadlarini aniq belgilashi, bilim doirasini tizimli ravishda kengaytirishi va analitik fikrlash qobiliyatini

rivojlantirishiga xizmat qiladi. Demak, shaxsiy mas'uliyatning ortishi talabalarning bilishga qiziqishi va ta'lim jarayonidagi intellektual faolligining kuchayishi bilan birga kechadi.

«Shaxsiy mas'uliyat» va «o'zini-o'zi hurmat qilish» omillari o'rtasidagi ijobiy bog'lanish ($r=0,34$; $p\leq 0,05$) talabaning mas'uliyat hissi uning o'z qadr-qimmatini anglash va o'ziga ijobiy munosabatda bo'lish xususiyati bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Shaxsiy mas'uliyatning rivojlanishi talabaning o'z imkoniyatlarini ijobiy baholashi, o'z kuchiga ishonishi va faoliyat natijalari uchun javobgarlikni his etishiga yordam beradi. O'zini-o'zi hurmat qilish esa murakkab vaziyatlarda psixologik barqarorlikni saqlash, vazifalarni oqilona taqsimlash va belgilangan maqsadlarga erishishda qat'iyatlilik namoyon etish imkonini beradi. Ushbu omillarning o'zaro uyg'unligi talabalarning akademik hamda ijtimoiy faoliyatda o'z salohiyatini namoyon qilishi, shaxsiy rivojlanishi va jamiyatda faol o'rin egallashi uchun muhim psixologik asos yaratadi.

«Hamkorlik» va «o'zini-o'zi rivojlantirish» omillari o'rtasidagi ijobiy bog'lanish ($r=0,35$; $p\leq 0,05$) talabaning jamoaviy faoliyatda ishtirok etish qobiliyati uning shaxsiy o'sish va takomillashishga bo'lgan intilishi bilan o'zaro bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Jamoaviy ishlarda faol qatnashadigan talabalar o'z fikrlarini erkin ifodalash, boshqalarning nuqtayi nazarini hurmat qilish va o'zaro tajriba almashish orqali shaxsiy salohiyatini kengaytiradi. Hamkorlik jarayoni talabalarda ochiqlik, ishonch va o'zaro yordamga asoslangan munosabatlarni shakllantiradi. O'zini-o'zi rivojlantirish motivatsiyasi esa mavjud kamchiliklarni anglash, yangi bilim va ko'nikmalarni egallash hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini takomillashtirishga undaydi. Mazkur omillarning uyg'unligi talabalarning jamoada o'z o'rnini mustahkamlashi, ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishi va shaxsiy hamda kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi.

«Tolerantlik» va «introyeksiyalangan motivatsiya» omillari o'rtasidagi ijobiy bog'lanish ($r=0,33$; $p\leq 0,05$) talabaning ichki tamoyil va qadriyatlar asosida faoliyat yuritishi boshqa shaxslarning fikrlarini hurmat qilish qobiliyati bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Tolerantlik darajasi yuqori bo'lgan talabalar turli nuqtayi nazarlarni qabul qilish, murosaga kelish va ijtimoiy munosabatlarda konstruktiv muloqot olib borishga moyil bo'ladi. Introyeksiyalangan motivatsiya esa talabaning ichki qabul qilingan me'yorlar, qadriyatlar va shaxsiy talablar asosida o'z xatti-harakatlarini tartibga solishini ifodalaydi. Ushbu omillarning uyg'unligi talabalarga o'z qadriyatlarini saqlagan holda turli ijtimoiy va madaniy muhitlarda samarali faoliyat yuritish imkonini beradi. Shuningdek, bu bog'lanish ichki barqarorlik, o'zaro tushunish va ijobiy munosabatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

«Ijtimoiy moslashuvchanlik» va «muvaqqat motivatsiyasi» omillari o'rtasidagi ijobiy bog'lanish ($r=0,38$; $p\leq 0,05$) talabalarning o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashish qobiliyati ularning maqsadga erishishga bo'lgan intilishi bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Ijtimoiy moslashuvchanligi yuqori bo'lgan talabalar yangi muhitda o'zini barqaror tutadi, yuzaga kelgan qiyinchiliklarni konstruktiv hal etadi va belgilangan maqsadlar sari izchil harakat

qiladi. Muvaffaqiyat motivatsiyasi esa ularni murakkab vazifalarni bajarish, mavjud imkoniyatlarni to'g'ri baholash va o'z salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga undaydi. Mazkur omillarning uyg'unligi talabalarning akademik va ijtimoiy faoliyatdagi muvaffaqiyatlari uchun muhim psixologik poydevor bo'lib xizmat qiladi.

«Ijtimoiy moslashuvchanlik» va «eksternal motivatsiya» omillari o'rtasidagi ijobiy bog'lanish ($r=0,36$; $p\leq 0,05$) talabalarning tashqi rag'batlantiruvchi ta'sirlarga javoban o'z xulq-atvorini ijtimoiy sharoitlarga moslashtirish qobiliyatini aks ettiradi. Eksternal motivatsiya baho, rag'bat, e'tirof va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kabi tashqi omillar orqali talabalarning o'quv hamda jamoaviy faoliyatdagi ishtirokini kuchaytiradi. Ijtimoiy moslashuvchanlik esa ushbu tashqi talab va imkoniyatlardan samarali foydalanish, jamoadagi o'z o'rnini topish hamda turli vaziyatlarda maqsadga muvofiq harakat qilishga yordam beradi. Demak, tashqi rag'batlantiruvchi omillar talabalarning ijtimoiy faolligini oshirish va yangi sharoitlarga moslashish qobiliyatini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

«Ijtimoiy moslashuvchanlik» va «amotivatsiya» omillari o'rtasidagi salbiy bog'lanish ($r=-0,32$; $p\leq 0,05$) talabalarning ijtimoiy sharoitlarga moslashish qobiliyati oshgan sari ta'lim jarayoniga nisbatan befarqlik va passivlik darajasi pasayishini ko'rsatadi. Amotivatsiya talabaning faoliyat maqsadini anglamasligi, o'z imkoniyatlarini namoyon etishga intilmasligi va murakkab vaziyatlardan chekinishi bilan tavsiflanadi. Bunday holat ta'limiy faollikning pasayishi, ijtimoiy munosabatlarda passivlik va qiyinchiliklarni hal etishda qat'iyatsizlikning kuchayishiga olib kelishi mumkin. Ijtimoiy moslashuvchanlikning rivojlanishi esa talabaning stressli vaziyatlarda faol strategiyalarni tanlashi, yangi muhitga tez moslashishi va o'z imkoniyatlaridan samarali foydalanishiga yordam beradi. Shu sababli, talabalarda ijtimoiy moslashuvchanlikni rivojlantirish amotivatsiyaning salbiy ta'sirini kamaytirish va ta'limga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, aniqlangan korrelyatsion bog'lanishlar talabalarning ijtimoiy yetukligi kognitiv faollik, o'zini-o'zi hurmat qilish, o'zini rivojlantirishga intilish, ichki va tashqi motivatsiya hamda muvaffaqiyatga erishish ehtiyoji bilan o'zaro bog'liq holda rivojlanishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ijtimoiy moslashuvchanlikning ortishi amotivatsiya, befarqlik va passivlikning kamayishiga xizmat qilishi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **«Talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning amaliy asoslari»** deb nomlangan to'rtinchi bobi muammoning empirik tahliliga bag'ishlangan bo'lib, olingan natijalarning tahlili, talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishga yo'naltirilgan psixologik treninglar dasturi, uning samaradorligini ta'minlaydigan mexanizmlar hamda tajribadan oldingi va keyingi statistik natijalar tahlili keltirilgan.

Ijtimoiy yetuklik nafaqat talabaning shaxsiy rivojlanish darajasi, balki ularning akademik muvaffaqiyatiga va jamiyatda o'z o'rnini topishiga sezilarli darajada ta'sir

ko'rsatadigan muhim sifatlardan biri hisoblanadi. Shu sababli, amaliy jihatlar ta'lim jarayonida ijtimoiy yetuklikni rivojlantirish uchun samarali usullarni qo'llashni taqozo etadi. Ushbu faoliyatlar talabalarga o'z qobiliyatlarini amalda sinab ko'rish va o'zaro hamkorlik orqali ijtimoiy muhitga moslashish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Amaliy jihatlarida talabalarning shaxsiy mas'uliyat va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Ular nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ulardan amaliyotda foydalanishni ham o'rganishlari zarur. Shu maqsadda, psixokorreksion mashg'ulotlar va treninglar orqali talabalar o'z hissiy barqarorligini oshirish, murakkab ijtimoiy vaziyatlarni hal qilishda samarali yechimlar topish va o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi qobiliyatlarni rivojlantirishi lozim.


Bundan tashqari, amaliy jihatlar talabalarni baholash va rivojlanish monitoringi orqali ularga qo'shimcha yordam ko'rsatish imkoniyatlarini ham o'z ichiga oladi. Baholash jarayonida talabalar o'z kamchiliklarini anglaydi va ularni bartaraf etish yo'lida aniq reja ishlab chiqadi. Monitoring esa, ta'lim jarayonidagi ijobiy o'zgarishlarni kuzatish va ijtimoiy yetuklik darajasini yanada oshirish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha choralarni ko'rishga yordam beradi.

Endi rivojlantiruvchi tajriba orqali olingan qiyosiy tahlil natijalar tahliliga o'tamiz.

5-jadval.

“Talabalarni o'qitish omilini oshirishda ijtimoiy yetuklik darajasini aniqlovchi psixologik so'rovnoma” orqali olingan qiyosiy natijalar tahlili (n=350)

Omillar	Guruhlar	Treningdan oldingi	Treningda n keyingi	Farqlanish	
		M ₁	M ₂	t	p
Shaxsiy mas'uliyat	Tajriba guruhi (n=150)	5,6	8,7	-2,6	0,05
	Nazorat guruhi (n=200)	5,9	6,2	-1,8	0,17
Hamkorlik	Tajriba guruhi (n=150)	5,7	7,9	-2,2	0,05
	Nazorat guruhi (n=200)	6,2	6,7	-1,5	0,13
Tolerantlik	Tajriba guruhi (n=150)	5,4	8,6	-2,9	0,05
	Nazorat guruhi (n=200)	5,9	6,3	-0,5	0,14
Ijtimoiy moslashuvchanlik	Tajriba guruhi (n=150)	6,1	8,3	-2,7	0,05
	Nazorat guruhi (n=200)	6,7	7,3	-1,5	0,12



1-rasm. Talabalarni o`qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirish modeli.

«Talabalarni o'qitish sifatini oshirishda ijtimoiy yetuklik darajasini aniqlovchi psixologik so'rovnomasida rivojlantiruvchi trening dasturi qo'llanilganidan keyin barcha omillar bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli o'zgarishlar qayd etildi. Jumladan, «shaxsiy mas'uliyat» ($t=-2,6$; $p<0,05$), «hamkorlik» ($t=-2,2$; $p<0,05$), «tolerantlik» ($t=-2,9$; $p<0,05$) hamda «ijtimoiy moslashuvchanlik» ($t=-2,7$; $p<0,05$) omillari bo'yicha sezilarli ijobiy va ahamiyatli farqlar aniqlandi.

«Shaxsiy mas'uliyat» omili bo'yicha tajriba guruhida statistik jihatdan ahamiyatli o'zgarishlarning kuzatilishi ($t=-2,6$; $p<0,05$) mazkur xususiyatni rivojlantirishga yo'naltirilgan trening dasturining samaradorligini ko'rsatadi. Shaxsiy mas'uliyat darajasining ortishi talabalarning o'z vazifalarini mustaqil, sifatli va belgilangan muddatlarda bajarishga intilishini kuchaytirgan. Shuningdek, ularda o'z faoliyatini rejalashtirish, vaqtni oqilona boshqarish va qabul qilgan qarorlari uchun javobgarlikni his etish ko'nikmalari rivojlangan. Mazkur omil talabalarning ta'lim jarayonida qat'iyatlilik namoyon etishi, o'z imkoniyatlaridan samarali foydalanishi hamda murakkab vazifalarni bajarishda o'z kuchiga ishonchini saqlashiga yordam beradi. Shaxsiy mas'uliyatning rivojlanishi o'z ustida muntazam ishlash, faoliyat natijalarini tahlil qilish va o'zgarishlarga tayyor bo'lishni ta'minlaydi. Shu jihatdan, mazkur omil talabalarning nafaqat akademik, balki ijtimoiy faoliyatdagi muvaffaqiyatlari uchun ham muhim psixologik asos bo'lib xizmat qiladi.

«Hamkorlik» omili bo'yicha ahamiyatli o'zgarishlarning qayd etilishi ($t=-2,2$; $p<0,05$) talabalarning jamoaviy faoliyatda ishtirok etish qobiliyati rivojlanganligini ko'rsatadi. Hamkorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan trening mashg'ulotlari ularda birgalikda ishlash, vazifalarni o'zaro taqsimlash va umumiy maqsadlarga erishishda faol qatnashish moyilligini kuchaytirgan. Talabalar jamoada o'z o'rnini anglash, boshqalarning fikrini inobatga olish va o'z imkoniyatlarini samarali namoyon etish ko'nikmalarini egallagan. Hamkorlikning rivojlanishi o'zaro hurmat, ishonch va ochiqlikka asoslangan munosabatlarning shakllanishiga xizmat qilgan. Shuningdek, talabalar muloqot jarayonida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklarni konstruktiv hal etish, murosaga kelish va jamoaviy qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirgan. Mazkur o'zgarishlar ta'lim jarayonida ijobiy ijtimoiy-psixologik muhitning shakllanishi va jamoaviy faoliyat samaradorligining oshishiga zamin yaratadi.

«Tolerantlik» omili bo'yicha qayd etilgan ijobiy o'zgarishlar ($t=-2,9$; $p<0,05$) talabalarda turli fikr, qarash va qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish hamda murosaga intilish darajasi oshganligini ko'rsatadi. Tolerantlikning rivojlanishi ularning boshqa shaxslar bilan ochiq va konstruktiv muloqot o'rnatish qobiliyatini mustahkamlagan. Talabalar turli madaniyat, dunyoqarash va ijtimoiy pozitsiyalarni qabul qilish, boshqalarning nuqtayi nazarini inobatga olish hamda o'zaro tushunishga asoslangan munosabatlarni shakllantirishga ko'proq moyillik namoyon etgan. Ushbu omil ularning yangi ijtimoiy vaziyatlarga moslashishi, nizolarni samarali hal etishi va turli muhitlarda o'zini erkin tutishiga yordam beradi. Tolerantlik talabalarning shaxsiy rivojlanishi, ijtimoiy barqarorligi va jamoaviy faoliyatdagi muvaffaqiyatini ta'minlovchi muhim psixologik xususiyat sifatida

namoyon bo‘ladi. Shu sababli, mazkur omilni rivojlantirish ta’lim jarayonida o‘zaro hurmat va qo‘llab-quvvatlash madaniyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

«Ijtimoiy moslashuvchanlik» omili bo‘yicha ahamiyatli o‘zgarishlarning aniqlanishi ($t=-2,7$; $p<0,05$) talabalarning turli ijtimoiy vaziyatlarda o‘z xulq-atvorini muvofiqlashtirish va yangi sharoitlarga moslashish qobiliyati rivojlanganligini tasdiqlaydi. Mazkur omil ularga o‘z imkoniyatlarini yangi muhit talablariga muvofiq namoyon etish, jamoada munosib o‘rin egallash va faoliyat jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni samarali bartaraf etish imkonini beradi. Ijtimoiy moslashuvchanlikning rivojlanishi talabalarning stressli holatlarda psixologik barqarorlikni saqlashi, murakkab vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilishi va mavjud resurslardan samarali foydalanishiga yordam bergan. Shuningdek, ushbu xususiyat yangi bilimlarni o‘zlashtirish, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash va o‘zgaruvchan talablar asosida faoliyat strategiyasini qayta tashkil etish qobiliyatini kuchaytiradi. Ijtimoiy moslashuvchanlik darajasining ortishi talabalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlab, ularning ta’lim va ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, rivojlantiruvchi trening dasturidan keyin barcha omillar bo‘yicha kuzatilgan statistik jihatdan ahamiyatli o‘zgarishlar mazkur dastur talabalarning shaxsiy mas’uliyati, hamkorlik qobiliyati, tolerantligi va ijtimoiy moslashuvchanligini rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatadi.

XULOSA

1. Mazkur dissertatsion tadqiqot ishimizga ko‘ra, 4-bosqich talabalarida bilim olish jarayoniga bo‘lgan mustahkam motivatsiyasi darjasining yuqoriligi, o‘zini o‘zi rag‘batlantirish qobiliyati ta’limdagi izchil rivojlanishiga xizmat qilganligi hamda o‘z maqsadlarini aniq belgilashiga va ularga erishish yo‘lida barqaror ishlashiga yordam berganligi dalillandi.

2. Talabalarning ta’lim jarayonidagi psixologik xususiyatlari, samarali ijtimoiy munosabatlarga kirishish ko‘nikmalari, aniq maqsadlarni belgilashi va ularga izchil intilishi kasbiy shakllanishning barqaror axloqiy-psixologik asoslarini belgilashi tufayli «shaxsiy mas’uliyat», «tolerantlik», «hamkorlik» hamda «ijtimoiy moslashuvchanlik» ijtimoiy yetuklikning yetakchi mezonlari ekanligi isbotlandi.

3. Dastlabki qiyosiy tahlillarda «shaxsiy mas’uliyat», «hamkorlik» va «ijtimoiy moslashuvchanlik» ko‘rsatkichlarining 4-bosqich talabalarida, «tolerantlik»ning esa 2-bosqich talabalarida yuqori namoyon bo‘lishi, shuningdek, rivojlantiruvchi treningdan keyin mazkur omillarning barchasida statistik jihatdan ahamiyatli ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgani asosida ishlab chiqilgan psixologik trening dasturining samaradorligi empirik jihatdan isbotlandi.

4. Talabalarning o‘ziga konstruktiv munosabatda bo‘lishi, o‘ziga ishonishi va o‘zini qabul qilishi «shaxsiy mas’uliyat»ni, o‘zini idora etishi «hamkorlik»ni, shaxslararo munosabatlardagi samimiyligi esa «tolerantlik»ni rivojlantirishi aniqlanganligi sababli ijtimoiy yetuklikning ta’lim sifati va shaxslararo refleksiya o‘rtasidagi mediatsion funksiyasi asoslandi.

5. Bilim olishga bo'lgan ichki ehtiyoj, kasbiy bilimlarni egallash motivi va o'z imkoniyatlarini adekvat baholash «shaxsiy mas'uliyat»ni, ichki motivatsiya «tolerantlik»ni, tashabbuskorlik esa «hamkorlik»ni kuchaytirishi natijasida talabalarning shaxsiy yetukligini ta'minlovchi o'zaro integratsiyalashgan motivatsion mexanizm mavjudligi dalillandi.

6. Talabalarda muvaffaqiyatga erishish va o'zini rivojlantirish motivatsiyasining kuchayishi «ijtimoiy moslashuvchanlik», «shaxsiy mas'uliyat», «hamkorlik» hamda «tolerantlik»ning rivojlanishiga olib kelib, amotivatsiya va qiyinchiliklardan qochishga moyillikni pasaytirgani bois akademik motivatsiyaning ijtimoiy yetuklik bilan integrativ aloqadorligi tasdiqlandi.

7. Shaxsiy qadriyatlar, ijtimoiy motivatsiya, kommunikativ kompetensiya va o'quv faolligining o'zaro uyg'unlashuvi motivatsion, kognitiv hamda refleksiv komponentlarning emotsional kompetentlik vositasida shaxs xulq-atvoriga interiorizatsiyalashuvini ta'minlashi sababli talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantiruvchi psixologik determinantlarning iyerarxik modeli takomillashtirildi.

8. Umumiy natijalar tahliliga ko'ra, «shaxsiy mas'uliyat» omili «bilish motivi» hamda «o'z imkoniyatlarining bahosi» omillari bilan, «hamkorlik» omili «tashabbuskorlik» omili bilan, «tolerantlik» omili «ichki motiv» omili bilan hamda «ijtimoiy moslashuvchanlik» omili «qochish motivi» omili bilan salbiy hamda «irodaviy quvvat» omili bilan ijobiy bog'lanishlarga ega ekanligi kuzatildi.

Dissertatsion tadqiqotimiz doirasida quyidagi **amaliy tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning ijtimoiy yetukligini muntazam diagnostika qilish maqsadida «shaxsiy mas'uliyat», «hamkorlik», «tolerantlik» va «ijtimoiy moslashuvchanlik» mezonlarini qamrab oluvchi psixologik so'rovnomadan foydalanish hamda aniqlangan natijalar asosida individual va guruhviy rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi.

2. Talabalarda «shaxsiy mas'uliyat»ni rivojlantirish uchun o'z faoliyatini rejalashtirish, vaqtni samarali boshqarish, mustaqil qaror qabul qilish, o'z imkoniyatlarini adekvat baholash va bajarilgan ish natijalari uchun javobgarlikni his etishga yo'naltirilgan amaliy mashqlarni ta'lim jarayoniga tizimli ravishda joriy etish maqsadga muvofiq.

3. «Hamkorlik» va kommunikativ kompetensiyani kuchaytirish maqsadida guruhviy loyihalar, muammoli vaziyatlarni jamoaviy hal etish, rolli o'yinlar, o'zaro fikr almashish va refleksiv muhokamalardan foydalanish, bunda talabalar o'rtasida vazifalarni adolatli taqsimlash hamda umumiy qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish tavsiya etiladi.

4. Talabalarda «tolerantlik»ni rivojlantirish uchun turli fikr, qadriyat va dunyoqarashlarni hurmat qilish, nizoli vaziyatlarda murosaga kelish, samimiy va konstruktiv muloqot o'rnatishga qaratilgan psixologik treninglar, munozaralar hamda madaniyatlararo muloqot mashg'ulotlarini muntazam tashkil etish zarur.

5. «Ijtimoiy moslashuvchanlik»ni oshirish hamda «amotivatsiya» va «qochish motivi»ning salbiy ta'sirini kamaytirish maqsadida talabalarga stressli va o'zgaruvchan vaziyatlarda samarali harakat qilish, muammolarni konstruktiv hal

etish, irodaviy quvvatni safarbar qilish va yangi ijtimoiy sharoitlarga moslashish strategiyalarini o'rgatuvchi rivojlantiruvchi dasturlarni qo'llash tavsiya etiladi.

6. Talabalarning ijtimoiy yetukligini rivojlantirishga qaratilgan psixologik-pedagogik ishlarni shaxsiy qadriyatlar, akademik motivatsiya, o'z-o'ziga munosabat, emotsional kompetentlik va refleksiv ko'nikmalarni o'zaro uyg'unlashtirgan holda tashkil etish, trening natijalarini dastlabki, oraliq va yakuniy diagnostika orqali baholab borish hamda samarali metodlarni oliy ta'lim amaliyotiga keng tatbiq etish maqsadga muvofiq.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/27.12.2025.P.08.10 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

РАХИМОВА НАЗОКАТХОН КАСИМДЖАНОВНА

**ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ СОЦИАЛЬНОЙ
ЗРЕЛОСТИ В ПОВЫШЕНИИ КАЧЕСТВА ОБУЧЕНИЯ
СТУДЕНТОВ**

19.00.06 – Возрастная и педагогическая психология. Психология развития

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

Тема докторской диссертации (DSc) зарегистрирована под номером B2024.2.DSc/P191 в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.buxdu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net.uz).

Научный консультант: Назаров Акмал Мардонович
доктор психологических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты: Сафаров Дилмурод Халимович
доктор психологических наук (DSc), профессор

Атабаева Наргис Батировна
доктор психологических наук, профессор


Абдуллаев Мехриддин Джунайдуллоевич
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Ведущая организация: Ургенчский государственный университет

Защита диссертации состоится в 14⁰⁰ часов 13-август 2026 года на заседании Научного совета DSc.03/27.12.2025.P.08.10 по присуждению ученых степеней при Бухарском государственном университете (Адрес: 200118, г.Бухара, ул.Мухаммад Икбол, 11. (Тел.:+99865221-29-14;факс: +998365 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована под № 97993). (Адрес: 200118, г. Бухара, ул.Мухаммад Икбол, 11. (Тел.: +998365221-25-87).

Автореферат диссертации разослан 27» июля 2026 года
(реестр протокола рассылки № 25 от 27» июля 2026 года


Заместитель председателя Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор психологических наук (DSc), профессор **Х.Х. Джабборов**

Учредитель секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор психологических наук (DSc), доцент **Ш.Ш. Рустамов**

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор психологических наук (DSc), профессор **Х.А. Хусейнова**

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и постребованность темы диссертации. В условиях ускорения процессов цифровой трансформации в мире, расширения коммуникационных возможностей и интенсификации информационных потоков исследование уровня социальной зрелости личности рассматривается как одна из важных психологических проблем. По данным Комиссии Европейского союза по образованию за 2023 год, в системах, где образовательный процесс сочетается с развитием социально-эмоциональных компетенций, эффективность обучения студентов демонстрирует более высокие показатели. Данный показатель составил 45 процентов в Германии и странах Скандинавии, а в США и Канаде 38 процентов. Подобные подходы способствуют созданию устойчивой психологической основы образовательного процесса посредством формирования у студентов таких качеств, как самосознание, чувство ответственности в межличностных отношениях и учет мнения других¹.

В мировых научно-исследовательских центрах и образовательных учреждениях важное научно-практическое значение приобретает изучение факторов, влияющих на социальную зрелость личности, ее отношение к обучению и психологическую устойчивость. В условиях глобализации от преподавателя требуется не только владение знаниями в рамках своей дисциплины, но и способность обеспечивать социально-психологическое равновесие в образовательном процессе, формировать у студентов позитивные модели социального поведения и содействовать занятию ими здоровой позиции в социальных отношениях. По результатам исследования, проведенного в 2022 году Международной ассоциацией социальной психологии (ISPA) с участием более 70 высших образовательных учреждений, академические показатели студентов, принимавших участие в тренингах и занятиях, направленных на развитие компонентов социальной зрелости, оказались в 1,8 раза выше. Данное обстоятельство актуализирует необходимость исследования особенностей социальной зрелости студентов и их формирования как личностей, адекватно воспринимающих социальную действительность, устойчивых к сложным жизненным ситуациям и обладающих ответственностью².

В последние годы в нашей республике осуществляются масштабные реформы, направленные на воспитание молодежи как зрелых личностей, обладающих современными знаниями и широким мировоззрением, активно занимающихся наукой, духовностью, искусством, литературой и спортом. В «Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» воспитание социально активных и ответственных граждан, формирование у них передовых социальных качеств посредством образовательного и воспитательного процесса определено одним из приоритетных направлений. Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев на совещании по вопросам

¹ https://commission.europa.eu/education_en

² <https://ispaweb.org/>

повышения качества образования, состоявшемся 28 августа 2023 года, особо подчеркнул: «Если мы не сможем подготовить каждого молодого человека к жизни, не сможем наряду с его интеллектуальным потенциалом развивать социальную ответственность и чувство полезности для общества, мы не сможем построить устойчивое общество»³. Данная позиция свидетельствует о том, что наряду с профессиональными знаниями развитие у студентов психологической и социальной зрелости является важной стратегической задачей, обеспечивающей устойчивое развитие общества.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, № УП-6108 «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана» от 6 ноября 2020 года, № УП-5847 «О Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 8 октября 2019 года, Постановлениях Президента Республики Узбекистан № 578 «Об утверждении нормативно-правовых актов, регулирующих процессы приема на учебу в высшие образовательные организации» от 13 сентября 2025 года, № ПП-149 «Об утверждении Положения о порядке предоставления и перераспределения грантов студентам в высших образовательных организациях» от 10 марта 2025 года, Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан № 1059 «Об утверждении Концепции непрерывного духовного воспитания и мерах по ее реализации» от 31 декабря 2019 года, № 824 «О мерах по совершенствованию системы, связанной с организацией образовательного процесса в высших образовательных учреждениях» от 31 декабря 2020 года, а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном и духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации⁴.

Научные исследования, направленные на изучение психологических детерминант формирования социальной зрелости студентов, последовательно проводятся в ведущих образовательных организациях и научно-исследовательских центрах мира, в том числе по механизмам социальной устойчивости, эмпатии, саморегуляции поведения и осознания социальной роли в межличностных отношениях в Калифорнийском университете,

³ <https://president.uz/oz/lists/view/6622>

⁴ <https://www.universityofcalifornia.edu>, www.stanford.edu, www.manchester.ac.uk, <https://www.apa.org>, www.uni-wuppertal, www.unimelb.edu.au, <https://nus.edu.sg>, www.unitn.it, <https://en.snu.ac.kr>, <http://www.mapn.su>, www.pirao.ru, msu.ru.

Стэнфордском университете (США), Университетском колледже Лондона (Великобритания), Американской психологической ассоциации (АРА, США), Бергишском университете (Германия), Мельбурнском университете (Австралия), Национальном университете Сингапура (Сингапур) и Московском государственном университете имени М.В. Ломоносова (Россия).

